

BOLALAR PSIXIK RIVOJLANISHINING ASOSIY QONUNYATLARI VA OMILLARI

Omonova Dilbar Ahmad qizi

Denov adbirkorlik va pedagogika instituti

4-MT-2025 guruh 1- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning psixik rivojlanishi va bola psixik rivojlanishdagi asosiy qonuniyatlar va biologik omillar keltirilgan bo'lib, bu omillar yuzasidan olimlarning o'tkazgan tajribalari va tadqiqot nazariyalari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Psixik rivojlanish, inson, xulq-atvor, biogenetk kontsepsiya, biologik omillar, ijtimoiy muhit.

Abstract: This article presents the psychological development of a child and the main laws and biological factors in the psychological development of a child, and the experiments and research theories of scientists on these factors are presented.

Keywords: Psychological development, human, behavior, biogenetic concept, biological factors, social environment.

Аннотация: В статье рассматривается психологическое развитие ребёнка, основные закономерности и биологические факторы, влияющие на его развитие, а также представлены эксперименты и исследовательские теории учёных, посвящённые этим факторам.

Ключевые слова: Психологическое развитие, человек, поведение, биогенетическая концепция, биологические факторы, социальная среда.

Kirish

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi

psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar — anatomiya, fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, etnografiya va boshqalar o'rganadi. Tug'ilgandan etuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o'rganish esa psixologik bilimlarning maxsus sohasi - bolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fan hisoblanib o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Asosiy qism: Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish - yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb maqsadlaridan biridir. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga etilish jarayonidan iborat deb ta'kidlangan. Biogenetik ta'limot inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlab o'tganlar.

Sotsiogenetik kontsepsiya namoyandalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida

tushuntiriladi. Bu ta'limotga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Har ikkala yo'nalishning namoyandalari, o'z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini yo nasliy, biologik omillar ta'siri ostida, yoki o'zgarmas muhit ta'sirida avvaldan belgilangan va o'zgarmas narsa, deb e'tirof etadilar.

Xulosa

Shaxs rivojlanishida uning psixologik xususiyatlariga va rivojlanayotgan sharoitiga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi. Ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasini rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiy holdir. Bola psixikasini o'rganishning yanada samarali metodlarini qidirish bolalar psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar haqida aniqroq axborot olishga xizmat qiladigan metodlarni ishlab chiqishni anglatadi. Bolalar psixik rivojlanishi izchil va uzluksiz jarayon bo'lib, har bir yosh davrida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Bolaning ruhiy o'sishi faqat biologik omillarga bog'liq bo'lib qolmay, balki ijtimoiy muhit va ta'lim orqali ham shakllanishi kitob mualliflari tomonidan alohida ta'kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergash G'oziyev - "Ontogenez psixologiyasi". Toshkent 2010
2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova – "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". T-2018
3. Sh.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.K.Karimova, Sh.T.Alimboyeva – "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". T-2013
4. A.K.Shamshetova, R.N.Meliboyeva, X.E.Usmanova, I.O. Xaydarov – 2. "Umumiy psixologiya". T-2018